

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

Toshtemirova Dilnura Sohib qizi

Jizzax davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Ismatova Shoxista

Maktabgachab ta'lim yo`nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ёшдаги болаларни ривожлантирувчи ўйин турлари ва уларнинг хусусиятлари хақида фикр билдирилган.

Kalit so'zlar: ўйин, фаолият, болалар, ўйин хусусиятлари.

Annotatsiya: В этой статье представлен обзор особенностей развития детей раннего возраста и развития у дошкольников

Klyuchevie slova: Игра, деятельность, дети, особенности игры.

Annotation: in this article suggested an idea of games that to help develop kindergarten children and features of such kind of games

Key words: game ,act, children, game feature

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim davrida tarbiyalanuvchilarning asosiy faoliyat turi o'yin hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shakllana boshlaydi. Pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin axloqiy, irodaviy xususiyatlarni shakllantirish bilan birga, unda bilim olishga, tevarak-atrofni bilishga qiziqish uyg'otadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinlarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin.

1. Didaktik –bolalar dunyoqarashini kengaytirish, bilish faoliyatini tashkil etish, bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.
2. Tarbiyaviy –mustaq illik va irodani tarbiyalash, axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish hamkorlikda ishlashga o'rgatish.
3. Rivojlantiruvchi-diqqat, xotira, nutq, tafakkurni rivojlantirish, taqqoslashga, tahlil qilishga o'rgatish. O'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish.

O'yinlarni o'tkazishga qo'yiladigan talablar:

-o'yinlarni tanlashda bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olish;

-maqsadni aniq belgilash;

- o'yinlarni bosqichma-bosqich amalga oshorish yo'llarini ishlab chiqish;
- o'yin jarayoniga barcha bolalarni jalb etish;
- o'yindagi individuallashtirish va guruhlash tamoyillarini hisobga olish;(didaktik o'yinlar, so'z o'yinlari, qoidalari-harakatli, ijodiy-ixtiyoriy, mazmunli-rangli o'yinlarda)
- bolalar fikrlashi uchun sharoitlar yaratish;
- bola erishgan yutuqlarni e'tiborga olish, ularni rag'batlantirish;

Bolalarni rivojlantirishda ijodiy va rolli o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Bu turdagi o'yinlarning quyidagi xususiyatlari mavjud.

O'yin jarayonida bola atrofdagi insonlar hayotini, hamda aks ettirishi mumkin. Bu uning ijtimoiylashuvi jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Olgan bilimlarini, o'rgangan narsalarini amalda qo'llash, mashq qilish imkoniga ega bo'ladi. Buning natijasida bolaning ongi, bilish qobiliyati, tafakkuri rivojlanadi.

Jamoa bo'lib tashkil etilgan o'yinda uning barcha a'zolari o'rtasida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi. Bu hurmat qilishga hamda o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishga o'rgatadi.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish bilan birga, o'yin qoidalari ham takomillashib boradi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlari, intilishlariga qarab, o'yinga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyachi bolalar faoliyatini boshqaradi, ya'ni ularni o'yin mazmuni bilan tanishtirib, faol va mustaqil harakatlar bajarishga undaydi, qoidalarining to'g'ri bajarilishini nazorat qiladi.

Bunday qoidalar (qachon va qayerda, qanday haraklarni bajarish, birgalikda ishlash, qiziqarli bo'lgan rollarni navbat bilan bajarish va hokazo) ishtirokchilarning munosabatlariga ta'sir korsatadi. Masalan, ayrim o'yinlarda bolalar berilgan topshiriqni birgalikda bajarishlari kerak bo'ladi. Bunday o'yinlar bolalarni birlashtiradi, ular o'rtasida samimiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Bolalar topshiriqni navbat bilan bajarsalar, o'z o'rtoqlariniki bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Agar bola o'yinni yoqtirib qolgan bo'lsa, uni takrorlashni xohlaydi, harakatlarni mustaqil bajaradi. O'yinning asosiy maqsadi ham shunda. Shu jarayon davomida rivojlantiruvchi omillar ham ro'yobga chiqadi.

Bolalar faoliyatini kuzatar ekanmiz, uning bilish jarayonini ikkita bir-biri bilan bog'liq bo'lgan komponentga ajratish mumkin.

Birinchi komponent –atrof muhit haqidagi ma'lumotlar va ularni qabul qilish hamda qayta ishlash uchun zarur bo'lgan tafakkur jarayonlari, ya'ni:

- bolani tevarak-atrofdagi muhitda qiziqtiradigan narsalar va jarayonlar;
- ma'lumot olish vositasi
- malumotni qayta ishlash

O'yin, mashg'ulot,sayr, kechki soat kabi pedagogik jarayonlarda tarbiyachi bolaning vositasi sifatida muayyan funksiyalarni bajaradi.

Bunda tarbiyachining asosiy maqsadi bolaga bilim (ma'lumot) berish emas, balki shu ma'lumot orqali uning bilish jarayonlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Ikkinchi component-insonni ma'lumotga bo'lgan munosabati.

Har qanday ma'lumot insonning u yoki bu narsa, hodisa va jarayonga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Lekin bu munosabat kattalar va bolalarda bir xil emas. Kattalar ma'lumotni qabul qilgandan keyingina unga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatni bildirishlari.

Bolada esa eng avvalo, biz yetkazmoqchi bo'lgan ma'lumotga ijobiy munosabatni shakllantirishimiz lozim.

Bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlaridan ta'lim masalalarini hal etishda foydalanish mumkin. O'yinni tashkil etish va boshqarish jarayonida tarbiyachi bola har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyalanuvchilarning idrok, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda matematik o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Matematik o'yinlarning maqsadlari asosan quyidagilarga qaratilgan bo'ladi.:

1. Son va sanoq bilan tanishtirish.
2. Vaqt haqidagi va fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish
3. Geometrik shakllar bilan tanishtirish
4. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish

Son va sanoq bilan tanishtirishda “Qanday raqam yo'qolib qoldi?”, “Xatoni top”, “Raqamning qo'shnilarni toping”, “Sanaganda adashma” va hokazo. Bunday o'yinlar yordamida bola birdan o'ngacha va o'ndan birgacha bo'lgan raqamlar ketma-ketligini esda saqlab qoladi. Elementar hisoblarni bajarishga o'rganadi, tafakkuri rivojlanadi.

Hafta kunlarini yaxshi eslab qolishlari uchun har bir kun ma'lum bir rangdagi doiracha bilan belgilanadi. Masalan, dushanba-sariq, seshanba-oq va

hokazo. Buning uchun har kuni doskaga ma'lum bir rangdagi doiracha yopishtirib boriladi. Uch-to'rt haftadan keyin bolalar kunlar ketma-ketligi o'zgarmas ekanligi haqida o'zlari xulasa chiqaradilar.

Fazoviy tasavvurlar o'yinlar orqali tushuntirilsa (chapda, o'ngda, tepada, pastda, oldidaorqada, uzoq, yaqin) bolalar tez qabul qiladilar va o'zlashtiradilar. Bunga "O'yinchoqni top" kabi o'yinlar yordam beradi. Tarbiyachi biron bir o'yinchoqni yashirib, uni toppish uchun nima qilish kerakligini tushuntiradi. O'yinchoqni toppish uchun stol oldidan uch qadam chapga (o'ngga) yurish kerak va hokazo.

Geometrik shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi o'yinni o'tkazish mumkin. Tarbiyachi har bir bolaga 3-4 rasm berib, ma'lum bir geometrik shaklni ko'rsatadi. Bolalar shu shaklga mos rasmni topishlari kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning mantiqiy tafakkuri rivojlantirib boriladi. Buning uchun mantiqiy topshiriqlar va o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish, ranglar qatorini davom ettirish (mantiqiy zanjircha), tushib qolgan belgini toppish va hokazolar.

Xullas, bunday o'yinlar orqali bolalar o'quv materialini tez tushunadilar va o'zlashtiradilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kichkintoylarni har tomonlama rivojlanishlarida katta ahamiyatga ega.

O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogic texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi ta'limdagi an'anaviy o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafoloti bilan farq qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yini xilma-xildir. Ularni o'yin turlarini asosan quyidagi klassifikatsiya qilish mumkin.

- 1) syujetli va rollarga bo'lib o'ynaladigan o'yinlar;
- 2) Dilaktik o'yinlar;
- 3) Xarakatli yoki qoidali o'yinlar;
- 4) Aralashtirilgan o'yinlar;
- 5) Qurish va yasash o'yinlari.

Syujetli va rollarga bo'lib uynaladigan bog'cha yoshi bolalarni eng asosiy o'yin formasidir.

O'yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularni maxsus guruhlarga birlashtirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, yirik psixolog E.A.Arkin o'yinlarning quyidagi tasnifini tavsiya qiladi:

- 1) ishlab chiqarishga (texnikaga); sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, kasb-hunarga oid o'yinlar;
- 2) maishiy va ijtimoiy siyosatga ro'zg'or: bog'chaga, maktabga, kundalik turmushga oid o'yinlar;
- 3) harbiy : urush-urush o'yinlari;
- 4) drammalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o'yinlar.

Biz shu tasnif haqida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin singari psixologlarning tanqidiy mulohazalariga to'la qo'shilamiz, chunki harbiy va drammalashtirilgan o'yinlarni ham ijtimoiy-siyosiy guruhga kiritish mumkin. Bizningcha, D.B.Elkoninning tasnifi ma'quldir. U maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o'yinlarning syujetiga ko'ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

- 1) maishiy mavzu syujetiga oid o'yinlar;
- 2) ishlab chiqarish syujetiga taaluqli o'yinlar;
- 3) ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar.

Muallif ayrim o'yin turlari maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha bo'g'inlariga mosligini, syujetlar maishiydan ishlab chiqarishga qarab va undan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirishga qarab rivojlanishini alohida uqtiradi. Uning fikricha, o'yin syujetidagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi, uning katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog'liqdir. Darxaqiqat, o'yin syujetining o'sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan syujetning o'ziga xos boshqa ko'rinishlari bilan boyishi sababli ham amalga oshadi.

Bolalarga tashabbuskorlik, jamoalizm, burch xislarini ustiradi. Bunga «Kim birinchi», «koptok», «ok quyuncha o'tiribdi», «yetib ol» o'yinlari kiradi.

Xarakatli o'yinlar asosan sayr va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'tkaziladi. Drammalashtirilgan o'yinlarni ham bolalar sevib o'ynaydilar. Bu o'yinlar turli xil ertak va xikoyalar saxnaga qo'yiladi, rollarni esa bevosita bolalarni o'zlari ijro etadilar. Masalan: «Qizil shapkacha», «Tortmoq», «Sholg'om» drammati o'yinlar bolalarni nutqi xayol va qobiliyatlarini tarkib toptiradi.

Фойдаланилган адабиётлар:

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

1. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim asoslari -F. N. Vaxobova, SH. B. Nabixanova, D. Karimova-Toshkent-2015
2. Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйилган Davlat talablari. – Toshkent, 2018 у.
3. “Илк қадам” Давлат укув дастури-Т. 2018 й
4. Uzbekistan. Uluchshenie sistemy doshkol'nogo obrazovaniya i vospitaniya- Vsemirnyy bank-2013 у.

